



ISLOM ILMLARI QATORIDA ISLOM FALSAFASINING VUJUDGA KELISHI

Aminjonov Asadullojon Qudratillo o'g'li

“Hadis ilmi maktabi” o'qituvchisi

Annotatsiya

Falsafiy bilimlarning mazmuni, o'z ichiga sog'lom fikrni jamlab, hodisalarning eng muhim sabablarini bilishga va ulardan kundalik amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan bo'ladi. Islom ilmlari qatorida Islom falsafasining vujudga kelishiga kelsak, Islom falsafasi – umumiy ma'noda Islom dini madaniyati ichida shakllangan va Islom o'lkasida yashab ijod etgan musulmon faylasuflari tomonidan yaratilgan falsafani ifoda etadi.

Kalit so'zlari: *Falsafa, Islom, tarix, faylasuf.*

Falsafa ilmi milliy, umuminsoniy qadriyat bo'lib, mazkur qadriyat inson o'zini o'zi inson sifatida tanigan kundan boshlab takomillashib, rivojlanib, chuqurlashib, murakkablashib, va tobora ilmiylashib borayotgan fandır.

Falsafaning mohiyati – bu «olam-odam» tizimidagi umumiy muammolar ustida fikr-mulohaza yuritishdan iboratdir.

Falsafiy bilimlarning mazmuni, o'z ichiga sog'lom fikrni jamlab, hodisalarning eng muhim sabablarini bilishga va ulardan kundalik amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan bo'ladi.

Falsafa so'zi qadimgi yunon tilidan fanga kirib kelgan atama bo'lib, aynan so'zma-so'z ma'nosi «philio-sevaman, sophia-donolik; ya'ni donolikka muhabbat



demakdir. Qadimgi yunonlarda bu soʻz «tushunishga intilish», «bilimga intilish» degan maʼnolarni ham anglatgan¹.

“Filosofiya” atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui qadimgi Yunoniston va Rimda eradan avvalgi VII-III asrlarda yuz bergan buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan. Oʻsha davrda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan.

Qadimgi dunyoda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shugʻullanishidan qatʼiy nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, ham tabiat toʻgʻrisidagi ilm hisoblanar edi. Shu maʼnoda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan oʻrni haqidagi qarashlar tizimi boʻlib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan. Bundan tashqari, qadimgi Yunonistonda yuz bergan buyuk uygʻonish davri oʻziga xos falsafiy mafkurani ham yaratganligi shubhasiz. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi ekanini, ana shu erkin hayot toʻgʻrisidagi qarashlar buyuk madaniy yuksalishga asos boʻlganini aksariyat olimlar alohida taʼkidlaydi².

Qadimgi Misr ham jahon madaniyatining eng qadimgi oʻchoqlaridan biri boʻlib, unda ham ilk madaniy yodgorliklar eramizdan avvalgi toʻrt ming yillikning boshlarida vujudga kelgan. Babil madaniyati kabi qadimgi Misr madaniy yodgorliklarida ham xalq donishmandligining hamma turlarida oʻsha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy hayot, tabiat hodisalariga munosabat, kishilarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy hayotida falsafiy qarashlar oʻz ifodasini topgan.

Qadimgi Misrda tibbiyot juda rivojlangan, misrliklar kasalliklarning juda koʻp turlaridan xabardor boʻlishib, tashxis qoʻyish sohasida katta tajribalarni qoʻlga kiritganlar³.

¹ Karimov I., Rustamova M. Falsafa fani tarixi va nazariyasi. Toshkent, 2006. –B. 5.

² Nazarov Q. Falsafa maruzalar matni. Ditaf, Toshkent, 2000. –B. 6.

³ Mamatov N. Hojiboyev A. Joʻrayev Sh. Falsafa tarixi. Toshkent, 2006. –B. 42.



Umuman, qadimgi Bobil va Misr xalqlarining madaniyati, urf odatlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, badiiy, ahloqiy va falsafiy qarashlari butun qadimiy Sharq xalqlari kabi diniy qarashlar bilan sugʻorilgan boʻlgan. Ularning bu qarashlari nasldan-naslga, avlodlardan-avlodlarga oʻtib, Sharqdagi boshqa koʻpchilik xalqlar madaniy-maʼnaviy taraqqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojiga oʻzining taʼsirini koʻrsatgan. Buni qadimgi Hindiston va Xitoy madaniy-maʼnaviy taraqqiyoti misolida koʻrish ham mumkin.

Bu faylasuflardan Arastu oʻz davrida qadimiy Yunonistonda butun ilm-fan, sanʼat va siyosat sohalarida erishilgan hamma yutuqlarni falsafiy umumlashtirishga muvaffaq boʻlgan mutafakkirdir. Shuning uchun uning asarlari antik jamiyatning bilimlari jumladan, falsafiy tafakkur tarixining muhim manbai hisoblanadi. Uning falsafiy taʼlimoti keyingi oʻrta asrlarda Sharq, Markaziy Osiyo, Hindiston va Uygʻonish davri Evropa xalqlari falsafiy tafakkuriga katta taʼsir koʻrsatgan.

Islom ilmlari qatorida Islom falsafasining vujudga kelishiga kelsak, Islom falsafasi – umumiy maʼnoda Islom dini madaniyati ichida shakllangan va Islom oʻlkasida yashab ijod etgan musulmon faylasuflari tomonidan yaratilgan falsafani ifoda etadi.

Dastlab, Islom madaniyati tarixida oʻrta asrlarda «falsafa», «hikmat» iboralari koʻp ishlatilgan boʻlsada, keyinchalik Islom madaniyatidagi falsafa tushunchasini ifoda etish uchun baʼzilar «Arab falsafasi» deb nomlashgan boʻlsada, baʼzilar «Musulmon falsafasi», baʼzilar «Islomda falsafa» deb, baʼzilar «Islom falsafasi deb taʼriflashgan. XIX asr oʻrtalaridan boshlab ilk bor shaqshunoslar tomonidan «Islom falsafasi» tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi.

Bir tomondan Islom jamiyati ichida VIII asrdan yuzaga chiqqan siyosiy, ijtimoiy va diniy masalalarning tortishuvi bilan, ikkinchi tomondan, klassik yunon va ellinistik davrga oid falsafiy matnlarni tarjima qilinishining boshlanishi va tarjimalarda bayon



qilingan falsafiy fikrlarni qiyosiy va tanqidiy o'zlashtirish bilan Islom dunyosida falsafa ilmining shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin hozirladi.

Islom madaniyatida faylasuf deb, yunon ilmlari bilan, xususan, mantiq, tabiatshunoslik, ilohiyotshunoslik, axloq ilmi va, ayniqsa, Arastu va Aflotun asarlari bilan tanish bo'lgan kishilarga aytilgan. Islom madaniyatida qadimgi yunon falsafasi, Pifagor va Aflotun qarashlari yoki yangipifagorchilik va yangiaflotunchilik qarashlari Iskandariya yo'lidan musulmon ilmiy-madaniy markazlariga tarqalgan va shu orqali mintaqa hayotiga kirib kelgan. Ko'plab olimlar faylasuf sifatida Islom mamlakatlarida o'z davrida katta shuhrat qozongan va ular boshqa falsafiy yo'nalishlarni ham, masalan, moniylik, hindularning qarashlarini tadqiq etganlar. Ularning ba'zilar bir qancha falsafiy yo'nalishlarni o'rganib, eklektik jihatdan takomillashtirib, har biridan o'z maqsadlari yo'lida unumli foydalanganlar. Masalan "Ixivon-us-Safo" vakillari o'z asarlarida yunon va rim mutafakkirlari Arastu, Aflotun, Pifagor qarashlari va yangiaflotunchilik ta'limotlari bilan birga musulmon olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy manbalarni, shuningdek boshqa musulmon bo'lmagan xorijiy manbalardan ham foydalanishni lozim ko'rishgan. Masalan, Roziy o'z qarashlarida Pifagor, Suqrot va Arastuning ontologik va gnoseologik qarashlarini boshqa falsafiy ta'limotlar, xususan, moniylik ta'limotlari bilan omuxta holda olib o'rgangan.

Islom madaniyatida dastlab Abu Yusuf Yaqub ibn Is'hoq al-Kindiy (vaf. 866-y.), Ahmad ibn at-Toyyib as-Saraxsiy (vaf. 899-y.), Ibn Ravandiy (vaf. 910-y.), Abu Bakr Muhammad Zakariyyo Roziy (vaf. 934y.), Abu Nasr al-Forobiy (vaf. 950-y.), Abu Ali Ibn Sino (vaf. 1037-y.) lar falsafa ilmiga ahamiyat berib o'zlari ham faylasuf sifatida nom qozongan bo'lsalar, ikkinchi tomondan shialar, mu'taziliy va ash'ariy kalomining paydo bo'lishi falsafa an'anasini yanada yuqori bir bosqichga ko'tardi.

Qadimdan faylasuflarni qiziqtirgan asosiy falsafiy muammolar islom olimlari o'rtasida ham bahs-munozaralarga sabab bo'lganligidan turli xil yo'nalishlar va oqimlar tomonidan har jihatdan keng tadqiq etilgan. Masalan Ibn Sino o'zining hayotini gapirar ekan: «Abu Abdulloh an-Notiliy Buxoroga kelganida men undan dars



ola boshladim. Undan oldin fiqh ilmi bilan shug‘ullanib, ustozim Ismoil az-Zohidning ilg‘or talabalaridan edim. An-Notiliydan “Isaguchi” kitobini o‘rgandim. Keyin mustaqil ravishda Yevklidning kitobini, keyinroq Ptolomeyning “Almagest” asarlarini o‘qib chiqdim. An-Notiliy Gurganjga ketganidan keyin fizika va metafizika ilmlarini o‘rgana boshladim. Shu sabab, ilm eshiklari menga ochilgan edi» – deydi⁴.

Islom dunyosida falsafa mustaqil tarixiy-falsafiy fenomen bo‘lib, muammolar doirasini taqdim etishda o‘z usuli hamda masalalarini hal etishning chegaralari va to‘g‘riligiga asoslanib, ularni o‘rtaga qo‘yishning mumkin bo‘lgan o‘ziga xos mezonlari borligi bilan tavsiflanadi. Bunda asosan Islom falsafasining barcha yo‘nalishlari uchun umumiy bo‘lgan va undagi munozaralar mavzusi bo‘lib hisoblangan muammolar majmui shakllandi. U o‘z ichiga metafizika (ilk negiz va uning ko‘p dunyolarga munosabati, mavjudlik-nomavjudlik modullari va ular o‘rtasidagi munosabat, sabablilik), bilish nazariyasi (bilish shakllari, hissiy, aqliy va intuitiv bilish), inson haqidagi ta’limot (inson harakat va bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan mavjudot sifatida, insonning dunyo va ilk negizga amaliy bilish tarzidagi munosabati) va hokazo masalalarni qamrab oladi.

Ushbu muammolar doirasidan kelib chiqib Islom falsafasida bu davrlarda faoliyat yuritgan asosiy yo‘nalish va maktab: kalom, peripatetizm (falsafa), tasavvuf, ismoiliylik ta’limotlarini sanab o‘tish mumkin.

Falsafa fanlari nomzodi A. Saydahmedova, Islom ilmlari rivojida falsafiy tafakkurning o‘rnini tahlil qilib, quyidagilarni aytadi: «Bizningcha, bu o‘rinda Islom falsafiy tafakkuri tarixining takomil bosqichlari haqida xam to‘xtalish lozim bo‘ladi. Ushbu mavzu bahsli mavzulardan bo‘lishiga qaramay, ko‘pchilik tadqiqotchilar Islom falsafasi tarixining takomil bosqichlarini quyidagi davrlarga bo‘ladilar:

1. Abbosiylar davrida falsafa ilmining shakllanish bosqichi (VIII asrning 2-yarmi va IX asrning birinchi yarmi). Ayniqsa, Ma’mun hukmronligi davrida

⁴ Ibn Sina. (Avitsenna) Izbrannyye filosofskiyе proizvedeniya. Nauka. Moskva. 1980 –B. 46-47.



Bagʻdoddagi tarjimalar harakati va «Baytul-hikma»dagi Hunayn ibn Isʻhoq, Xubash ibn al-Hasan, Sobin ibn Kurra, Kusta ibn Luka kabi tarjimonlar faoliyati davri;

2. «Falsafa» ilmi rivojining dastlabki bosqichi (IX-XI asrlar). Bu bosqichda asosan xalifalikning sharqiy viloyatlarida faoliyat yuritgan mutafakkirlar: Abu Yusuf Yaqub ibn Isʻhoq al-Kindiy (vaf. 866-y.), Ahmad at-Toyyib as-Saraxsiy (vaf. 899-y.), Ibn Ravandiy (vaf. 910-y.), Abu Bakr Muhammad Zakariyyo ar-Roziy (vaf. 934y.), Abu Nasr al-Forobiy (vaf. 950-y.), Abu Ali Ibn Sino (vaf. 1037-y.) lar falsafa ilmiga ahamiyat berganlar va oʻzlari ham faylasuf sifatida nom qozonganlar.

3. Falsafa rivojining ikkinchi bosqichi (XII–XIII asrlar). Bu davr musulmon Ispaniyasida yashab ijod etgan faylasuflar faoliyatini qamrab oladi. Bu davrda andalusiyalik Ibn Boja (vaf. 1159-y.), Ibn Tufayl (vaf. 1185-y.), Ibn Rushd (vaf. 1198-y.) kabi faylasuflar Islom falsafiy fikr rivojini yangi pogʻonaga koʻtardilar.

Shuningdek, Abu Homid Gʻazzoliy (vaf. 1111-y.), Ibn Sabʻin (vaf. 1270-y.), Faxriddin ar-Roziy (vaf. 1209-y.), Shahobiddin as-Suhravardiy (vaf. 1191-y.)lar ham bu davr Islom falsafasining yirik namoyandalari hisoblanadi.

4. Falsafa rivojining uchinchi bosqichi (XIV-XVII asrlar). Bu davrda al-Ijjiy (vaf. 1355-y.), al-Jurjoniyy (vaf. 1413-y.), at-Taftazoniy (vaf. 1389-y.), ad-Davvoniyy (vaf. 1427-y.), Ibn Xaldun (vaf. 1406-y.)lar faoliyat koʻrsatgan va bu davrda falsafaning kalom yoʻnalishi bilan birlashuvi koʻzga tashlanadi»⁵.

⁵ Saydahmedova A.ning www.buxoriy.uz saytiga bergan maqolasi.